


Namangan viloyati  
Statistika boshqarmasi

# NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023- YIL  
yanvar- iyun

Dastlabki ma'lumotlar



## 2023- yil yanvar-iyun

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar  
ulushi –  
76,8 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
2 764,1  
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
8 327,9  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi –  
65,0 %**

**Ko'rsatilgan  
bozor  
xizmatlarining  
o'sish  
sur'atlari -  
110,1 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmatlarning  
o'sish sur'atlari –  
107,7 %**

*Dastlabki ma'lumotlar*

2023- yil yanvar-iyun




**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 327,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 499,6** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,1** % ni tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar




## 2023- yil yanvar-iyun

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>8 327,9</b>	<b>110,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	444,7	125,8
Moliyaviy xizmatlar	1 511,3	119,9
Transport xizmatlari	1 526,7	108,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 354,7	106,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	229,9	104,4
Savdo xizmatlari	2 595,2	107,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	215,0	101,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	362,5	121,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	184,4	99,8
Ijara xizmatlari	131,6	91,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	232,5	102,9
Shaxsiy xizmatlar	533,0	102,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	89,4	102,1
Boshqa xizmatlar	271,7	107,1

*Dastlabki ma'lumotlar*

**2023- yil yanvar-iyun**

**Taqqoslash uchun:** 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **121,4 %**. Nisbatan past Ijara xizmatlarida kuzatilgan – **91,1 %**.




**Dastlabki ma'lumotlar**

### 2023- yil yanvar-iyun

2023-yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **1 526,7** mlrd. soʻmga teng boʻlib, ularning oʻsishi 2022- yilning shu davriga nisbatan **108,7** % ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **18,3** % ni tashkil etdi.

#### Turlari boʻyicha transport xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun oylarida)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **88,7** % dan yuqorini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-iyun oylarida ushbu transport turi tomonidan koʻrsatilgan xizmatlarning ulushi **90,9** % ni tashkil etgan.

#### Dastlabki maʼlumotlar



## 2023- yil yanvar-iyun



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,2 %** ni tashkil etib, bu **2 595,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **2 158,8** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,6 %** ga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari



*Dastlabki ma'lumotlar*

## 2023- yil yanvar-iyun

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **76,3 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar (**5,5 %**) da kuzatildi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yilning yanvar-iyun oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo ulushi **77,6 %** ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**



2023- yil yanvar-iyun



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)

2023- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 511,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1 148,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **18,1** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **16,8** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **362,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **119,9** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **124,6** % ni tashkil etgan.



**Dastlabki ma'lumotlar**

## 2023- yil yanvar-iyun

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **8,3 %** oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,3 %** ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-iyun oylarida)

Yordamchi moliyaviy  
faoliyat



Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **90,7 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,8 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,5 %** ni tashkil etgan .

**Dastlabki ma'lumotlar**



2023- yil yanvar-iyun

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y.  
yanvar-iyun

347,8  
mlrd. so'm

123,3 %

5,1 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi  
ulushi

Hajmning o'sishi

96,9 mlrd. so'mga

2023- y.  
yanvar-iyun

444,7  
mlrd. so'm

125,8 %


5,3 %

*Dastlabki ma'lumotlar*

## 2023- yil yanvar-iyun

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmogʻi, yoʻldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,1 %** ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**



2023- yil yanvar-iyun

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2023- yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **362,5 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,3 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **121,4 %** ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

2023- yil yanvar-iyun




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar


2023- y.  
yanvar-iyun



2022- y.  
yanvar-iyun




Xizmatlar hajmi




160,5 mlrd. so'm

2,2 %




Xizmatlarning  
jami hajmidagi ulushi




2,4 %

99,8 %



O'sish sur'ati



115,8 %

*Dastlabki ma'lumotlar*




2023- yil yanvar-iyun



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




*Dastlabki ma'lumotlar*

## 2023- yil yanvar-iyun

2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **45,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,3** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **84,7** % ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**



## 2023- yil yanvar-iyun

Tuman(shahar)lar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
<b>Namangan viloyati</b>	<b>8 327,9</b>	<b>110,1</b>	<b>116,0</b>
Namangan sh.	3 818,1	111,1	122,7
<b><i>tumanlar:</i></b>			
Mingbuloq	313,1	109,3	110,8
Kosonsoy	425,0	109,1	113,3
Namangan t.	444,4	109,6	112,1
Norin	370,1	111,0	109,9
Pop	528,2	111,6	107,1
To'raqo'rg'on	542,9	110,3	111,3
Uychi	534,1	109,2	112,8
Uchqo'rg'on	400,4	109,4	111,2
Chortoq	449,4	110,9	112,6
Chust	576,6	104,8	116,9
Yangiqo'rg'on	425,6	111,1	110,4


***Dastlabki ma'lumotlar***

2023- yil yanvar-iyun



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Tuman(shahar)lar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **39,8 %** (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – **39,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,8 %** (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – **3,8 %**) qayd etildi.

**Dastlabki ma'lumotlar**



2023- yil yanvar-iyun



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning  
o'sishi

2 764,1  
ming so'm

445,6 ming  
so'mga

2023- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 764,1** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2022 - yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 318,5** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,5 %** da qayd etilgan.

O'sish sur'ati

107,7 %



**Dastlabki ma'lumotlar**

2023- yil yanvar-iyun



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



*Dastlabki ma'lumotlar*




## 2023- yil yanvar-iyun



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,0** % ni tashkil etdi

### 2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **76,8** % ga to'g'ri keldi.



**Xizmatlar sohasi  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 69-211-72-00**

*Dastlabki ma'lumotlar*